



SANOAT KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.

Bozorov G'ayrat O'rinovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

<https://orcid.org/0009-0005-9771-891X>

gayrat_1984@bk.ru

Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

<https://orcid.org/0009-0008-0606-9398>

bakhronovashakhodat@g.mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida korxonalarining innovatsion faolligini oshirishga yo'naltirilgan strategiyalar va usullar tahlil qilingan. Zamonaviy sharoitda innovatsiyalar korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'rganilgan adabiyotlar tahlil qilingan holda, innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga oid taklif va xulosalar berilgan. Shuningdek, xalqaro miqyosdagi kompaniyalarining tajribasi hamda O'zbekistondagi muvaffaqiyatli loyihalar misolida innovatsiyalarning iqtisodiyotga ta'siri yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, korxonalar, innovatsion faollik, raqobatbardoshlik, texnologik rivojlanish, O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarini.*

Аннотация: В этой статье проанализированы стратегии и методы, направленные на повышение инновационной активности предприятий в Республике Узбекистан. В современных условиях инновации являются важным фактором обеспечения конкурентоспособности предприятий. На основе анализа изученной литературы даны предложения и выводы по развитию инновационных процессов. Также на примере опыта международных компаний и успешных проектов в Узбекистане освещено влияние инноваций на экономику.

Ключевые слова: *Инновация, предприятие, инновационная активность, конкурентоспособность, технологическое развитие, Промышленные предприятия Республики Узбекистан.*



Abstract: This article analyzes strategies and methods aimed at increasing the innovative activity of enterprises in the Republic of Uzbekistan. In modern conditions, innovation is an important factor in ensuring the competitiveness of enterprises. Based on an analysis of the studied literature, proposals and conclusions regarding the development of innovative processes are presented. The impact of innovations on the economy is also highlighted through the experience of international companies and successful projects in Uzbekistan.

Key words: *Innovation, enterprise, innovative activity, competition, technological development, industrial enterprise, Republic of Uzbekistan.*

KIRISH

Innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiyotda korxonalarining muvaffaqiyati va barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Masalan, xalqaro miqyosda Tesla kompaniyasi avtomobilsozlikda innovatsion yondashuv orqali elektromobillar bozorida yetakchilikni qo'lg'a kiritgan. Mahalliy darajada esa "Yashnobod" innovatsion texnoparki yangi texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishda muvaffaqiyatli namuna sifatida ajralib turadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida dron texnologiyalarining joriy etilishi va energiya sohasida quyosh panellarini keng qo'llash bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar O'zbekistonda innovatsiyalarning ahamiyatini yorqin namoyish etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston strategiyasi" doirasida innovatsion taraqqiyot davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiya doirasida innovatsiyalarni joriy etish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va texnologik yangilanishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotining turli sohalarida innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni oshirishga erishilmoqda. Sanoat sohasida esa texnoparklar misolida yangi texnologik mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Shuningdek, energetika sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish bo'yicha qator innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan,



texnoparklar va innovatsion markazlarning tashkil etilishi, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan sanoat korxonalari o'rtasidagi hamkorlikning kuchaytirilishi bu boradagi muhim qadamlar hisoblanadi. Shu bilan birga, global raqobat muhiti mahalliy korxonalar oldiga yangi talablarni qo'yimoqda.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri bu inson kapitalini rivojlantirish va ilmiy-texnologik infratuzilmani takomillashtirishdir. Inson kapitali rivoji, avvalo, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilm-fanga investitsiyalarni ko'paytirish orqali ta'minlanadi.

Xususan, O'zbekistonda yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari va xalqaro ilmiy hamkorlik kengaytirilmoqda. Biroq, bu yo'nalishda hali ham qator muammolar mavjud, jumladan, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning cheklanganligi va kadrlar oqimining yuqoriligi. Ilmiy-texnologik infratuzilma rivoji esa texnoparklar, innovatsion markazlar va startaplarni qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlarni talab qiladi. Shu bilan birga, mavjud texnologik baza va sanoat sohalarida modernizatsiyani jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro tajriba almashinuv dasturlarida ishtirokni kengaytirish orqali bu sohada yangi yutuqlarga erishish mumkin. Shu sababli, ushbu maqola O'zbekiston korxonalarining innovatsion faolligini oshirish yo'llarini batafsil tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsion faollikni oshirish mavzusi bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, Shumpeter (1934) innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida ko'rib chiqadi. Zamonaviy tadqiqotlar innovatsion jarayonlarni boshqarish va moliyalashtirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda texnologik infratuzilmani takomillashtirish masalalarini o'z ichiga oladi (Porter, 1990; Freeman, 1995). O'zbekistonda bu borada o'tkazilgan tadqiqotlar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi (Rasulov, 2020).

Shuningdek, Drucker (1985) innovatsiyalarni menejment va tashkilotlarni rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'rsatadi. Chesbrough (2003) ochiq innovatsiya konsepsiyasini ilgari surib, korxonalar tashqi manbalardan olingan g'oyalarni ichki jarayonlarga integratsiya qilishi zarurligini ta'kidlaydi. Nonaka va Takeuchi (1995) esa bilimni boshqarish orqali innovatsion mahsulot va jarayonlarni yaratishning muhimligini asoslab beradi.



Rogers (1962) esa innovatsiyalarni qabul qilish va tarqalish nazariyasini ishlab chiqib, korxonalar tomonidan yangi texnologiyalarni qabul qilish jarayonlarini tushuntirib beradi. Nelson va Winter (1982) evolyutsion iqtisodiyot nazariyasi orqali texnologik o'zgarishlar korxonalar faoliyatiga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Kim (1997) esa rivojlanayotgan davlatlarda texnologik qobiliyatlarni oshirish va innovatsion rivojlanish masalalariga e'tibor qaratgan.

Lundvall (1992) milliy innovatsion tizimlar nazariyasida innovatsion rivojlanishni milliy iqtisodiy sharoitlar bilan bog'laydi. Edquist (1997) innovatsion tizimlarning tarkibiy elementlarini tahlil qilib, ularning o'zaro aloqalari va iqtisodiyotga ta'sirini yoritadi. Malerba (2002) esa sektorlarning o'ziga xos innovatsion tizimlarini o'rganib, turli sohalarda innovatsiyalarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari aniq qilib berilgan.

METODOLOGIYA

Sanoat korxonalarining barqarorligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalarning o'rnini mavzusini o'rganish uchun bir necha usullardan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va xalqaro tashkilotlarning sanoat korxonalaridagi innovatsion texnologiyalarning tarqalishi va samaradorligi bo'yicha ma'lumotlarini to'plab tahlil qilindi. Misol sifatida, 2020-2023 yillar uchun texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalar ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Mahalliy va xorijiy korxonalar innovatsion texnologiyalarni qanday joriy qilganini qiyoslab, muvaffaqiyatli strategiyalarni aniqlandi. **Case-study (holatlarni o'rganish) usulidan** foydalanib mahalliy korxonalaridagi muvaffaqiyatli innovatsion loyihalar, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari yoki avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari joriy etilishi tahlil qilingan. Ilmiy-texnologik rivojlanish sohasidagi ekspertlarning fikrlari o'rganib, ularni mavjud strategik rejalarini ishlab chiqishda qo'llash.

SWOT tahlili orqali O'zbekistondagi sanoat korxonalarining kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, imkoniyatlar va xavf-xatarlarni aniqlash. Bu korxonalar uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etishda qaysi yo'nalishlarga ustuvorlik berish kerakligini belgilashga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishdan kutilayotgan iqtisodiy samaralarni prognoz qilish uchun matematik va iqtisodiy modellarni yaratish.



Ushbu usullar integratsiyalangan holda qo'llanilib, sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini oshirish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Zamonaviy raqobatbardosh iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonolari oldida barqaror faoliyat yuritish va global bozorlarda o'z o'rini saqlab qolish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda innovatsion texnologiyalar muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion texnologiyalar korxonalar uchun mahsulot sifati va xizmat ko'rsatish darajasini oshirish imkonini beradi. Bu iste'molchilar talabini qondirishga yordam berib, uzoq muddatda korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Bu resurslarni tejash va ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalar korxonalarda chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza mahsulotlar yaratishga imkon beradi. Bu, ayniqsa, global ekologik talablar ortib borayotgan sharoitda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali korxonalar bozorda yangi mahsulot turlarini taklif etishi va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishi mumkin. Bu esa korxonaning pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Korxonalar innovatsion faolligi bo'yicha statistik ma'lumotlar (2020-2023)

N	Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil
1	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsiya joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	2 599	1 757
2	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni, birlik	2 359	1 952
3	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar hajmi, foiz	58,8	49,6
4	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy-tadqiqot, ishlanmalar, tajriba-konstruktorlik ishlar, xizmatlar hajmi, foiz	59,1	52,7



5	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan innovatsiyalar xarajatlari, milliard so'm	4 661, 1	15 837,0
6	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi, milliard so'm	17 795,2	14 468,8
7	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda	1824	1058
8	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni, birlikda	1253	2150
9	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar, foizda	36,8	28,6
10	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi, foizda	54,7	50,4
11	Ishlab chiqarish sanoati va moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd. so'm	4 858,8	5 742,5
12	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha ishlab chiqarilgan innovatsiyalar hajmi, mlrd. so'm	25 078,8	28 087,3

Manba: o'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat Uzstat ma'lumotlari

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020-yildan 2021-yilga o'tishda o'z kuchi bilan innovatsiya joriy qilgan korxonalar soni sezilarli darajada kamaygan (2 599 dan 1 757 birlikka). Bu, ayniqsa, innovatsion faoliyatning umumiy pasayishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, texnologik innovatsiyalar soni (1253 birlikdan 2150 birlikka) oshgan. Bu esa innovatsion faoliyatning ayrim yo'nalishlarda faollashganini ko'rsatsa-da, uning natijadorligi pasayganini bildiradi.

Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun **xarajatlar sezilarli darajada oshgan**: mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan innovatsion xarajatlar 4 661,1 mlrd so'mdan 15 837,0 mlrd so'mga ko'tarilgan (3,4 baravar). Shu bilan birga, **innovatsion**



mahsulotlar hajmi 17 795,2 mlrd so‘mdan 14 468,8 mlrd so‘mga tushgan (19% pasayish).

Bu innovatsion mahsulotlarni yaratish va bozorga chiqarish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni ko‘rsatadi. Ko‘proq xarajat qilinishiga qaramay, natijalar samarador bo‘lmayapti. Bu korxonalarining innovatsiya bilan bog‘liq rejalashtirish va ijro mexanizmlarida kamchiliklar borligini anglatadi.

O‘z kuchi bilan innovatsion mahsulot ishlab chiqargan korxonalar soni ham 1 824 birlikdan 1 058 birlikka tushgan (42% kamayish). Bu esa innovatsion faoliyatga jalb qilingan korxonalar sonining kamayib borayotganini bildiradi.

Shu bilan birga, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning o‘sishiga qaramay, korxonalar innovatsion loyihalardan voz kechmoqda. Buning sababi korxonalar uchun innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni qimmat yoki murakkab bo‘lishi mumkin.

2021-yilda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qaratilgan xarajatlar 4 858,8 mlrd so‘mdan 5 742,5 mlrd so‘mga oshgan (18% o‘sish). Bu moliyalashtirishning ortgani haqida ma‘lumot bersa-da, innovatsion samaradorlikning pasayishi ushbu xarajatlarning yetarli emasligi yoki noto‘g‘ri yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

O‘z kuchi bilan bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar hajmi foizi 54,7% dan 50,4% gacha kamaygan. Bu innovatsion mahsulotlarga bozor talabining yetarli darajada shakllanmaganligi yoki korxonalarining bozorda faoliyat olib borishda yetarli tajribaga ega emasligini ko‘rsatadi.

Innovatsion faollik

Yillar	Texnologik innovatsiyalar	Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar	Marketing innovatsiyalar	Tashkiliy innovatsiyalar
2020	4 011	3 017	994	202	77
2021	3 936	3 035	901	145	67
2022	3 417	1 629	1 788	113	270
2023	7 530	4 494	3 036	232	233



Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ma'lumotlarni bir-biriga bog'lagan holda ko'rib chiqilganda, korxonalarining innovatsion faolligida sezilarli tizimli muammolar mavjudligi ko'rinadi. Moliyaviy xarajatlarning oshishi texnologik innovatsiyalarni joriy qilish imkoniyatini yaratgan bo'lsada, ularning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri ko'rinmayapti. Bu innovatsiyalarni amalda qo'llash va bozorda tijoratlashtirish mexanizmlarida kamchiliklar borligini ko'rsatadi.

Jarayon innovatsiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, texnologik yangiliklar bilan birgalikda korxonalar barqarorligiga xizmat qiladi. 2023 yilda texnologik innovatsiyalar bilan bir vaqtda jarayon innovatsiyalari ham sezilarli darajada oshgan (3 036 birlik). Bu sanoat korxonalarini ichki jarayonlarni avtomatlashtirish va takomillashtirish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini optimallashtirayotganini ko'rsatadi.

2020-2021 yillarda esa jarayon innovatsiyalarining sekinlashishi (994 va 901 birlik) texnologik innovatsiyalardagi o'zgarishlarga hamohang bo'lib, resurslar yetarli darajada samarali qo'llanilmaganligini anglatadi.

Mahsulot innovatsiyalarining o'sishi marketing innovatsiyalarini talab qiladi, chunki yangi mahsulotlarni bozorga muvaffaqiyatli olib chiqish uchun samarali marketing strategiyalari zarur.

2023 yilda mahsulot innovatsiyalari sonining oshishi (4 494 birlik) marketing innovatsiyalariga ham ta'sir ko'rsatdi va ular 232 birlikni tashkil etdi. Bu korxonalar yangi mahsulotlarni reklama qilish va sotishni rivojlantirishga e'tibor qaratganini anglatadi.

2022 yilda esa mahsulot innovatsiyalari pasaygan davrda marketing innovatsiyalari ham qisqargan (113 birlik). Bu yangi mahsulotlar bo'lmaganida marketingga bo'lgan talabning pasayishini ko'rsatadi.

Tashkiliy innovatsiyalar jarayonlarni yaxshilash va korxonalar boshqaruvini optimallashtirish orqali samaradorlikni oshiradi.

2022 yilda tashkiliy innovatsiyalar sonining oshishi (270 birlik) jarayon innovatsiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan (1 788 birlik). Bu ko'rsatkichlar korxonalar ichki boshqaruvni yaxshilash orqali jarayonlarni samarali tashkil etayotganini ko'rsatadi.

2023 yilda esa tashkiliy innovatsiyalarning biroz pasayishi (233 birlik) jarayon innovatsiyalarining yuqori o'sish sur'atlariga to'siq bo'la olmadi. Bu o'sish texnologik innovatsiyalarning jarayonlar samaradorligiga ta'sirini aks ettiradi.

Texnologik yangiliklar mahsulot, jarayon va boshqa innovatsiya turlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mahsulot innovatsiyalarining ortishi bilan marketing



innovatsiyalari ham rivojlanib, bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi. Tashkiliy innovatsiyalar boshqaruvning muhim qismi sifatida jarayonlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Samarali boshqaruv strategiyalari jarayon innovatsiyalarini rag'batlantiradi.

Xulosa va takliflar

Sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish bo'yicha keltirilgan takliflar bir-biriga uzviy bog'liq va birgalikda amalga oshirilganda korxonalar barqarorligini ta'minlashda sezilarli natijalarga erishiladi. Quyida bu taklif va xulosalar o'zaro bog'liqligi asosida tahlil etiladi.

Texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslar va innovatsion infratuzilmani yaratish zarur. Davlat tomonidan maxsus fondlar va grantlar ajratilishi, shuningdek, xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish texnologik yangilanishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon sanoat klasterlarini tashkil etish va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali qo'llab-quvvatlanadi. Shunday qilib, texnologik investitsiyalar va infratuzilma rivojlanishi o'zaro bog'liq holda korxonalarni innovatsion rivojlanishga yetaklaydi.

Innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan kadrlar kerak. Malakali kadrlarni tayyorlash va qayta o'qitish dasturlari ishlab chiqarish jarayonlarining raqamli transformatsiyasini amalga oshirishni tezlashtiradi. Sun'iy intellekt va IT texnologiyalarini joriy qilish uchun malakali mutaxassislarining bo'lishi texnologiyalardan maksimal foyda olish imkonini beradi. Kadrlar va texnologik yangilanishlar o'zaro uyg'unlashgan holda korxonalarining samaradorligini oshiradi.

Texnologik yangilanishlar korxonalar tomonidan raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Bu mahsulotlarning xalqaro bozorlarda muvaffaqiyat qozonishi uchun marketing strategiyalari va xalqaro standartlarga moslashtirish muhim. Marketing va mahsulot innovatsiyalari o'zaro uyg'unlashgani sababli, texnologik innovatsiyalar nafaqat ichki bozorda, balki eksport salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va ekologik barqarorligini oshirish innovatsion texnologiyalarga tayanadi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish orqali



resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlik ta'minlanadi. Bu esa jarayon innovatsiyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, korxonalar tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishni ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish samarali boshqaruv va resurslarni to'g'ri taqsimlashni talab qiladi. Tashkiliy innovatsiyalar korxonalar boshqaruv tizimini kuchaytirish orqali texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu jarayonda texnologiyalarni boshqarish va samaradorlikni oshirish bir-biriga bog'liq jarayonlar sifatida amalga oshiriladi.

Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun texnologik investitsiyalar, infratuzilmani mustahkamlash, kadrlar malakasini oshirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini uyg'unlashtirish zarur. Marketing va mahsulot innovatsiyalari bozor talablariga moslashuvchanlikni oshirsa, ekologik innovatsiyalar barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu jarayonlarning barchasi tashkiliy innovatsiyalar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilsa, sanoat korxonalarini barqarorligi, raqobatbardoshligi va samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Sanoat korxonalarining barqarorligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu texnologiyalar korxonalar samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va ekologik muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar, yuqori malakali kadrlar va samarali infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash sanoatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development.
2. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations.
3. Freeman, C. (1995). The 'National System of Innovation' in Historical Perspective.
4. Rasulov, Sh. (2020). O'zbekistonning innovatsion taraqqiyoti.
5. Drucker, P. (1985). Innovation and Entrepreneurship; Practice and Principles. 25-50 betlar
6. Chesbrough, H. (2003). Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. 35-70 betlar



7. Nonaka, I., & Takeuchi, H. (1995). *The Knowledge-Creating Company*. 50-120 betlar
8. Rogers, E.M. (1962). *Diffusion of Innovations*.
9. Nelson, R.R., & Winter, S.G. (1982). *An Evolutionary Theory of Economic Change*.
10. Kim, L. (1997). *Imitation to Innovation: The Dynamics of Korea's Technological Learning*.
11. Lundvall, B.A. (1992). *National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning*.
12. Edquist, C. (1997). *Systems of Innovation: Technologies, Institutions, and Organizations*.
13. Malerba, F. (2002). *Sectoral Systems of Innovation and Production*
14. Rasmiy davlat hisobotlari va statistik ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
15. Bahronova, S. (2023). *MOLIYAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING AHAMIYATI. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 250-252.*
16. Bahronova, S. B. (2024). Comparative analysis of methods for assessing the financing of innovative developments of the enterprise. *Indexing, 1(1)*.
17. Baxshulloyevna, B. S. (2024). *HUDUDDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR TAHLILI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA). TADQIQOTLAR. UZ, 52(3), 15-24.*
18. Bahronova, S. B. (2024). *RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR-INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI. Indexing, 1(1)*.
19. Bahronova, S. B. (2024). *Iqtisodiy fanlarni o'qitishda raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Indexing, 1(1)*.
20. Abdinabiyevna, S. S., & Bekpo'lotjonovna, X. J. A. (2024). *KICHIK BIZNES KORXONALARI FAOLIYATIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA ERISHISHNING YO'LLARI. TADQIQOTLAR. UZ, 50(1), 45-51.*
21. Atamuradov S. *Инновацион лойиҳаларни венчур фондлари орқали молиялаштириш ва унда учрайдиган таваккалчилик турлари*



- //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 24-35.
22. Атамуратов Ш. А. Инновацион фаолиятни ривожланишга йўналтирилган инвестициялар таҳлили //International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 19-24.
23. Ashurova N. B. Atamuradov Sh //A. “Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti” (O ‘quv qo ‘llanma)-Navoiy: NDKI. – 2019.
24. Атамуратов Ш. А. Роль налогов в формировании доходной части государственного бюджета республики Узбекистан //совершенствование налоговой политики государства в условиях глобализирующейся экономики. – 2014. – С. 107-111.
25. Baxshulloyevna, B. S. (2024). KORXONANING INNOVATSION ISHLANMALARINI MOLIYALASHTIRISHNI BAHOLASH USULLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH. *TADQIQOTLAR. UZ*, 50(1), 183-190.
26. Baxshulloyevna, B. S., & Nodirbekovna, Y. N. (2024). DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINING MOLIYALASHTIRILISHI VA ULARNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 52(3), 25-35.
27. Bahronova, S. B. (2024). Comparative analysis of methods for assessing the financing of innovative developments of the enterprise. *Indexing*, 1(1).